

ORGANLAR TRANSPLANTATSIYASINING PAYDO BO'LISH TARIXI

Qo'shmuhammedova Muhayyo Raximjon qizi
Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan
filiali davolash ishi yo'nalishi 1 bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada organlar transplantatsiyasining, ya'ni, (organlar ko'chirib o'tkazish)ning paydo bo'lishi uning rivojlanishi, tibbiyotdagi ahamiyati, inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek hozirgi kunda qo'llanilayotgan zamonaviy usullar ham to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: Transplantatsiya, organ, kasallik, ko'chirish, rivojlanish, inson, salomatligi, tibbiyot, davolash, zamonaviy usul, a'zo, to'qima.

Abstract

This article provides information about the emergence of organ transplantation, that is, (organ transplantation), its development, importance in medicine, and importance in human life. The modern methods used today are also fully covered.

Keywords: Transplantation, organ, disease, transplantation, development, human, health, medicine, treatment, modern method, organ, tissue.

Аннотация

В данной статье представлена информация о возникновении трансплантации органов, её развитии, значении в медицине и в жизни человека. Также подробно рассматриваются современные методы, используемые сегодня.

Ключевые слова: трансплантация, орган, болезнь, развитие, человек, здоровье, медицина, лечение, современный метод, орган, ткань.

Inson organlari va to'qimalarini transplantasiya qilish — Hech qanday tijorat yoki g'arazgo'ylik maqsadlarsiz kelishilgan rozilik asosida insonning hayotligida yoki uning jasadidan organlar va to'qimalarni tibbiy yo'l bilan jarrohlik operatsiyasi yordamida amalga oshiriladigan jarayondir. Transplantatsiyaning eng keng tarqalgan turi qon quyishdir. Har yili millionlab bemorlarni davolash uchun qon quyish qo'llanadi [1. Internet resursi.]. Organlar transplantatsiyasi bu hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan va samarali natija berayotgan amaliyotdir. Transplantatsiya a'zo va to'qimalarni ko'chirib o'tkazishdir.

Organ transplantatsiyasi, qon quyishdan farqli o'laroq, immun tizimini (immunitetni susaytiruvchi vositalar, shu jumladan kortikosteroidlar) va infeksiya ehtimoli, transplantatsiya qilingan organi rad etish va boshqa jiddiy asoratlarni, shu jumladan o'limning oldini olishga qaratilgan katta jarrohlik muolajasidir. Hayotiy organi ishlamay qolgan bemorlar uchun transplantatsiya omon qolishning yagona

imkoniyati sanaladi. Tirik donorlardan olingan to'qimalar va organlar odatda sog'lomligi sababli afzal hisoblanadi. Ko'p holatlarda ildiz hujayralari (suyak iligi yoki qondan) va buyraklar tirik donorlardan olinadi. Odatda, buyrakni donordan xavfsiz olish mumkin, chunki tananing ikkita buyragi bor va hatto bitta buyrak bilan ham normal ishlashga qodir.

Hozirgi vaqtda mamlakatda tibbiyot institutini tartibga soluvchi normativ-hujjatlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Amaldagi tartibga ko'ra, inson organlari va to'qimalarini transplantasiya qilishni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Buyrak va (yoki) jigar bo'lagi hamda gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralarini transplantasiya qilish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida“gi № 859-son qarorida Umumiy qoidalar, Transplantasiyaga nisbatan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, Transplantasiyani bajarish tartibi va yakunlovchi qoidalar o'z aksini topgan. Mazkur qonun hujjatida transplantasiyani amalga oshirish jarayoni, standartlar va o'zaro munosabatlar o'z aksini topmaganligi sababli, Jahon tibbiyot assosiasiyasi va JSSTning rasmiy hujjatlari bilan tartibga solinadigan organlar va to'qimalarni transplantasiya qilish tartibini hisobga olib xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqiladigan va tijoratlashtirilishini umuman istisno etadigan „Inson organlari, to'qimalari va (yoki) hujayralarini transplantasiya qilish to'g'risida“gi qonunni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish talab etiladi

Dunyo hamjamiyatidagi xalqaro qonun hujjatlar

- JSSTning 2010-yildagi Inson organlari, to'qimalari va hujayralarini transplantasiya qilish bo'yicha Rahbariy (Bosh) prinsiplar;
- 1985-yildagi „Tirik organlar savdosi haqida“gi Butunjahon vrachlar Assosiasiyasi Murojaati;
- Butunjahon vrachlar Assosiasiyasining tirik organizmlar savdosi to'g'risidagi bayonoti (1985 y.),
- 1987-yildagi „Organlar transplantasiyasi haqida“gi Butunjahon vrachlar Assosiasiyasi Deklarasiyasi;
- 1994-yildagi „Inson organlarini transplantasiya qilishda vrachlarning xulqi masalalari“ bo'yicha Butunjahon vrachlar Assosiasiyasining Rezolyusiyasi;
- 2004-yildagi „Milliy sog'liqni saqlash organlari tomonidan samarali monitoringini amalga oshirish zarurligi haqida“gi Rezolyusiyasi.

Ikki taraf muvofiq kelgan taqdirda quyidagi shartlar asosida a'zoni ko'chirish amaliyoti mumkin bo'ladi:

1. Biror a'zosini hadya qiluvchi odamning a'zosi olinganda uning hayoti xavf ostida qolmasligi;
2. O'z a'zosini hadya qiluvchi odam ixtiyoriy ravishda bo'lishi, hech kim tomonidan majbur qilinmasligi;

3. A'zoning ko'chirilishiga sabab haqiqatan ham muhtoj bo'lgan bemorning kasalligi tibbiyot jihatidan faqat shu yo'l bilangina tuzalishi mumkin degan xulosaga kelingan bo'lishi;
4. A'zosi olinayotgan va yangi a'zo qo'yilayotgan ikki taraf uchun ham jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli tarzda o'tishi va kutilgan natijaga erishilishi tajribalarda kuzatilgan va unga ishonch hosil qilingan bo'lishi zarur

Transplantatsiya uchun donorlar

1. Ko'krak qafasi;
2. Yurak (faqat murda donor)
3. O'pka (murda va tirik donor)
4. Qorin bo'shlig'i;
5. Buyrak (murda va tirik donor)
6. Jigar (agar qisman jigar transplantatsiyasi zarur bo'lsa, o'likdan yoki bir nechta donordan butun jigar kerak bo'lsa, o'lik va donor)
7. Pankreas (faqat donorlar murda)
8. Ichak (murda va tirik donor)
9. Oshqozon (faqat donorlar murda)
10. Jinsiy organ (murda va tirik donor)

Ko'chirish mumkin bo'lmagan a'zolar:

- bir insonning nasli boshqasiga o'tishiga sabab bo'ladigan irsiy a'zolar, shu sifatlarni tashuvchi va homilaga sabab bo'luvchi a'zolar;
 - insonning yashashiga bevosita bog'liq bo'lgan yurak kabi a'zolar;
 - insonning to'kis yashashiga bilvosita bog'liq bo'lgan ko'z qorachig'i kabi a'zo;
- Shuningdek, O'zbekistonda:
- 18 yoshga to'lmagan shaxslarga (bundan suyak iligini transplantasiya qilish hollari mustasno);
 - belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, shuningdek ruhiy holatning buzilishlariga (ruhiy kasalliklarga) chalingan shaxslarga;
 - qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga;
 - I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
 - homilador ayollarga;
 - shaxsi aniqlanmagan shaxslarga;
 - muayyan yashash joyi bo'lmagan shaxslarga;
 - „Mehribonlik“, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylarida yashovchi shaxslarga;
 - a'zosi va (yoki) to'qimalari ilgari transplantasiya uchun olingan shaxslarga.
- O'zbekiston fuqarosi chet davlat fuqarosi bo'lgan rezident uchun donor bo'lishi mumkin emas. Transplantasiya qilinadigan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekistondan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi

- Ushbu Qonunning maqsadi inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.
- Ushbu Qonunning amal qilishi:
- insonning ko'payishiga taalluqli bo'lgan a'zolar va to'qimalarning (tuxum hujayrasi, sperma, tuxumdonlar, moyaklarning yoki embrionlarning) transplantatsiyasiga;
- a'zolar va to'qimalarning autogen (bir shaxsning o'zi tirik donor va retsipyent bo'ladi) transplantatsiyasiga;
- qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-modda. Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risidagi qonunchilik

- Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.
- Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

- Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
- bosh miyaning o'limi — bosh miya barcha vazifalarining to'liq va asl holiga qaytmaydigan tarzda to'xtashi;
- inson a'zosi — inson organizmida muayyan vazifani bajaruvchi turli xil hujayralar va to'qimalarning alohida majmui;
- inson to'qimasi — umumiy kelib chiqishi, tuzilishi va inson organizmida bajaradigan vazifalariga ko'ra birlashgan hujayralar hamda hujayralararo moddalar majmui;
- retsipyent — o'ziga nisbatan inson a'zosining va (yoki) to'qimasining transplantatsiyasi bajariladigan inson;
- tirik donor — o'zidan a'zolarining va (yoki) to'qimalarning transplantatsiya uchun olinishiga ixtiyoriy ravishda, bepul asosda, notarial tartibda tasdiqlangan yozma rozilik bergan inson;
- transplantatsiya — retsipyentda mavjud bo'lmagan yoxud shikastlangan, o'zining muhim hayotiy vazifalarini bajarishga qodir bo'lmagan a'zolari va (yoki) to'qimalarni tirik donordan yoki inson murdasidan olingan a'zolariga va (yoki) to'qimalarga jarrohlik amaliyoti yoki muolaja o'tkazish yo'li bilan almashtirish.

4-modda. Transplantatsiya obyektlari

- Tirik donordan yoki inson murdasidan olingan inson a'zolari va (yoki) to'qimalari transplantatsiya obyektlari bo'lishi mumkin, ularning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.
- Sun'iy ravishda yetishtirilgan a'zolar transplantatsiya obyektlari bo'lmaydi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi vakolatlari

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
- inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- tegishli organlar va tashkilotlarning inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- transplantatsiya obyektlari ro'yxatini, shuningdek ularning transplantatsiyasi tartibini belgilaydi;
- inson a'zolari va to'qimalarini O'zbekiston Respublikasi hududida tashish, ularni saqlash, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish tartibini belgilaydi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi vakolatlari

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:
- inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- Donorlarning, retsipiyentlarning, shuningdek inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining yagona davlat reyestrini shakllantiradi hamda yuritadi;
- inson a'zolari va to'qimalarini olishni hamda ularning transplantatsiyasini amalga oshiruvchi davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiyot muassasalari faoliyatini nazorat qiladi, shuningdek ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi va o'zaro hamkorligini ta'minlaydi;
- inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasida xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlaydi.
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Inson a'zolari va to'qimalarini olishni hamda ularning transplantatsiyasini amalga oshiruvchi tibbiyot muassasalari

- Inson a'zolari va to'qimalarini olish hamda ularning transplantatsiyasi davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiyot muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, ushbu muassasalarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2-bob. Inson a'zolari va to'qimalarini olish hamda ularning transplantatsiyasi shartlari va tartibi**8-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa**

- Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa davolovchi shifokor, transplantolog, anesteziolog, nevropatolog, zarurat bo'lganda boshqa ixtisosliklardagi shifokorlardan iborat tarkibdagi mutaxassis-shifokorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda beriladi.

9-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi shartlari

- Tirik donordan yoki inson murdasidan a'zolari va (yoki) to'qimalarni transplantatsiya qilish faqat boshqa jarrohlik amaliyotlari yoki muolajalar retsipyent hayotini saqlab qolishni yoxud uning sog'lig'i tiklanishini kafolatlay olmagan taqdirda qo'llanilishi mumkin.
- Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini retsipyentlarga transplantatsiya qilish inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi.

10-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasiga retsipyentning roziligi

- Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi retsipyentning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi. Bunda retsipyent bo'lajak jarrohlik amaliyoti yoki muolaja munosabati bilan o'z sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlari haqida imzo qo'ydirilib ogohlantirilishi kerak. Ushbu jarayon majburiy tartibda videoyozuvga qayd etiladi. Agar retsipyent o'n sakkiz yoshga to'lmagan bo'lsa yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa yoxud retsipyentning o'zidan rozilik olishning imkoni bo'lmasa, inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi uning otanasining yoki boshqa qonuniy vakilining yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

11-modda. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini uning murdasidan olish shartlari

- Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini uning murdasidan olishga uning tiriklik chog'idagi notarial tartibda tasdiqlangan yozma roziligi mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.
- Insonning murdasidan olingan a'zolaridan va (yoki) to'qimalardan barcha muhtoj shaxslarga transplantatsiya qilish uchun foydalanilishi mumkin.
- Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini uning murdasidan tegishli roziliksiz olish qonunga xilofdir.

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda, inson bosh miyasining o‘limini qayd etish asosida beriladigan o‘lim to‘g‘risidagi xulosa mavjud bo‘lgan taqdirda, inson a‘zolari va (yoki) to‘qimalari uning murdasidan transplantatsiya uchun olinishi mumkin. Inson bosh miyasining o‘limini qayd etishda transplantologlarning hamda inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olishni ta‘minlovchi brigadalar a‘zolarining ishtirok etishi taqiqlanadi.

12-modda. Tirik donordan a‘zolari va (yoki) to‘qimalarni olish shartlari

- Tirik donordan a‘zolari va (yoki) to‘qimalarni transplantatsiya uchun olish faqat retsipyentning sog‘lig‘ini ko‘zlab hamda inson murdasida transplantatsiya uchun yaroqli bo‘lgan a‘zolar va (yoki) to‘qimalar mavjud bo‘lmagan yoxud samaradorligi inson a‘zolarining va (yoki) to‘qimalarining transplantatsiyasi samaradorligi bilan taqqoslanishi mumkin bo‘lgan muqobil davolash usuli mavjud bo‘lmagan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.
- Tirik donorni undan a‘zosini va (yoki) to‘qimalarini olish uchun rozilik berishga majburlash taqiqlanadi.
- Tirik donordan juft a‘zolaridan biri va (yoki) a‘zosining bir qismi, shuningdek to‘qimasi ushbu moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan talablar hisobga olingan holda transplantatsiya uchun olinishi mumkin.
- Tirik donordan a‘zolari va (yoki) to‘qimalarni olishga faqat, agar olish paytida tibbiy xulosaga ko‘ra uning sog‘lig‘iga ko‘rish, nutq, eshitish qobiliyati yo‘qolishiga yoxud a‘zosining (bundan insonning transplantatsiya qilinayotgan a‘zosi va (yoki) to‘qimasi mustasno) funksiyalari qisman yoki to‘liq yo‘qolishiga, ruhiyati buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarzda yoki sog‘lig‘ining mehnat qobiliyati o‘ttiz uch foizdan ortiq tarzda barqaror yo‘qolishiga olib keladigan boshqa buzilishiga sabab bo‘ladigan tarzda ziyon yetkazilmasa, yo‘l qo‘yiladi.
- Tirik donordan a‘zolari va (yoki) to‘qimalarni retsipyentga transplantatsiya qilish uchun olishga, agar donor:
- a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish bo‘yicha bo‘lajak jarrohlik amaliyoti yoki muolaja munosabati bilan o‘z sog‘lig‘i uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlari haqida kamida o‘ttiz kun oldin yozma shaklda, videoyozuvga qayd etgan holda ogohlantirilgan bo‘lsa;
- o‘z a‘zosini va (yoki) to‘qimalarini olishga bo‘lgan roziligini ixtiyoriy ravishda, bepul asosda, notarial tartibda tasdiqlangan yozma shaklda bildirgan bo‘lsa;
- har taraflama tibbiy tekshiruvdan o‘tgan bo‘lsa hamda uning a‘zosini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya qilish uchun olish mumkinligi to‘g‘risida mutaxassis-shifokorlarning tibbiy xulosasi mavjud bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

- Tirik donorni har taraflama tibbiy tekshiruvdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

13-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi vaqtida videotasvirga olish

- Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi vaqtida inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishni hamda ularning transplantatsiyasini amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi tomonidan videotasvirga olish amalga oshiriladi. Bunda videoyozuvdagi inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi haqidagi axborot oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydigan shifokor sirini tashkil etadi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.
- Retsipiyentni va donorni sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqidagi ogohlantirishning, shuningdek transplantatsiya jarayonining videoyozuvi tibbiyot muassasasi tomonidan arxivlashtiriladi, videoyozuv aslining dublikati esa saqlash uchun ichki ishlar organlariga topshiriladi.
- Videoyozuvni amalga oshirish tartibi, shuningdek uni saqlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

14-modda. Donorlikka doir cheklovlar

- Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishga, agar ular O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan, transplantatsiya qilish uchun inson a'zolari va to'qimalari donorligiga qarshi ko'rsatma mavjud bo'lgan kasalliklar ro'yxatiga kiruvchi kasalligi bo'lgan yoki ilgari shunday kasallikka chalingan tirik donorga yoki inson murdasiga tegishli bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi.
- Quyidagilarga nisbatan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishga yo'l qo'yilmaydi:
 - o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga (bundan suyak iligini transplantatsiya qilish hollari mustasno);
 - belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, shuningdek ruhiy holatning buzilishlariga (ruhiy kasalliklarga) chalingan shaxslarga;
 - qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga;
 - I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
 - homilador ayollarga;
 - shaxsi aniqlanmagan shaxslarga;
 - muayyan yashash joyi bo'lmagan shaxslarga;
 - "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchi shaxslarga;
 - a'zosi va (yoki) to'qimalari ilgari transplantatsiya uchun olingan shaxslarga.
- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet davlat fuqarosi bo'lgan retsipiyent uchun donor bo'lishi mumkin emas.

15-modda. Transplantatsiya qilinadigan inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisini, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishini taqiqlash

- Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilishda jismoniy hamda yuridik shaxslarga inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi taqiqlanadi.
- Transplantatsiya qilinadigan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

16-modda. Tirik donor va retsipiyent to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi

- Tirik donor va retsipiyent to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydigan shifokor sirini tashkil etadi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

3-bob. Tirik donor hamda retsipiyentning huquq va majburiyatlari

17-modda. Tirik donorning huquq va majburiyatlari

- Tirik donor:
- o'zidan a'zosini va (yoki) to'qimasini olish amalga oshiriladigan tibbiyot muassasasidan inson a'zosini va (yoki) to'qimasini olish bo'yicha bo'lajak jarrohlik amaliyoti yoki muolaja munosabati bilan o'z sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqida to'liq axborot olish;
- jarrohlik amaliyoti yoki muolaja o'tkazilishini u boshlanguniga qadar rad etib, rad etish sababini asoslamaslik;
- o'zidan a'zosi va (yoki) to'qimalari olinganligi bilan bog'liq bo'lgan, yuzaga kelgan asoratlar tufayli davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiyot muassasalarida O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qonunchilikka muvofiq davolanish va kuzatuvda bo'lish huquqiga ega.
- Tirik donor:
- o'z boshidan o'tkazgan yoxud o'zida mavjud bo'lgan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zidan a'zosini va (yoki) to'qimasini olish amalga oshiriladigan tibbiyot muassasasiga ma'lum qilishi;
- shifokorlarning tibbiy tavsiyalariga rioya etishi shart.

18-modda. Retsipiyentning huquq va majburiyatlari

- Retsipiyent:
- o'ziga inson a'zosini va (yoki) to'qimasini transplantatsiya qilish bo'yicha bo'lajak jarrohlik amaliyoti yoki muolaja munosabati bilan o'z sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqida a'zoning va (yoki) to'qimaning transplantatsiyasi amalga oshiriladigan tibbiyot muassasasidan to'liq axborot olish;

- jarrohlik amaliyoti yoki muolaja o'tkazilishini u boshlanguniga qadar rad etib, rad etish sababini asoslamaslik;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiyot muassasalarida reabilitatsiyadan o'tish va kuzatuvda bo'lishi[2. B. 1-7.].
- **Organ kasalligining oxirgi bosqichi:** Bemorlarda organ kasalliklarining so'nggi bosqichi tashxisi bo'lishi kerak, ya'ni ularning organlari faoliyati hayotni davom ettira olmaydigan darajaga tushib qolgan. Masalan, glomerulyar filtratsiya tezligi (GFR) minutiga 15 ml dan kam bo'lgan bemorlar buyrak transplantatsiyasiga nomzod bo'lishi mumkin.

Boshqa muolajalarning samarasizligi: Nomzodlar qoniqarli natijalarga erishmasdan, dori-darmonlar, turmush tarzini o'zgartirish yoki kamroq invaziv muolajalar kabi boshqa barcha davolash usullarini tugatgan bo'lishi kerak.

Masalan, yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar yurak transplantatsiyasiga murojaat qilishdan oldin turli xil tibbiy muolajalar va aralashuvlardan o'tgan bo'lishi mumkin[Internet resursi.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Transplantatsiya>
2. <https://lex.uz/docs/-6001286> O'RQ-768-сон 11.05.2022. Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida
3. <https://www.apollohospitals.com/uz/procedures/what-are-the-different-types-of-organ-transplant>